



Evolution of Political and Legal Mechanisms in Ensuring Ecological Security of Uzbekistan (1992–2025)

Juldizkhan SABUROVA¹

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

ARTICLE INFO

Article history:

Received July 2025
Received in revised form
15 August 2025
Accepted 25 August 2025
Available online
15 September 2025

Keywords:

ecological security,
political mechanisms,
environmental policy,
environmental legislation,
environmental protection,
sustainable development,
national interests,
environmental management,
institutional foundations,
environmental policy
reforms,
ecological political
institutions,
international cooperation,
environmental strategies.

ABSTRACT

This article analyzes the evolution of political and legal mechanisms for ensuring environmental safety in Uzbekistan from 1992 to 2025. The process is traced from the Constitution to special laws, state programs, and international obligations, highlighting three stages: the establishment of a legal foundation, implementation of control and detailed regulations, and the development of strategic concepts and international integration periods.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss8/S-pp61-69>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

O'zbekiston ekologik xavfsizligini ta'minlashda siyosiy va huquqiy mexanizmlar evolyutsiyasi (1992–2025-yillar)

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

ekologik xavfsizlik,
siyosiy mexanizmlar,
ekologik siyosat,
ekologik qonunchilik,
atrof-muhitni muhofaza
qilish,
barqaror rivojlanish,

Mazkur maqolada O'zbekiston ekologik xavfsizligini ta'minlash bo'yicha siyosiy va huquqiy mexanizmlarning 1992–2025-yillardagi evolyutsiyasi tahlil qilingan. Konstitutsiyadan boshlab maxsus qonunlar, davlat dasturlari va xalqaro majburiyatlarga bo'lgan jarayon ko'rsatilib, uch bosqich – huquqiy poydevor yaratish, nazorat va detallashtirish,

¹ PhD student, National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek.

milliy manfaatlar,
ekologik boshqaruv,
institutsional asoslar,
ekologik siyosiy islohotlar,
ekologik siyosiy institutlar,
xalqaro hamkorlik, ekologik
strategiyalar.

hamda strategik konsepsiyalar va xalqaro integratsiya davrlari
yoritilgan.

Эволюция политических и правовых механизмов обеспечения экологической безопасности Узбекистана (1992–2025 гг.)

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

экологическая
безопасность,
политические механизмы,
экологическая политика,
экологическое
законодательство, охрана
окружающей среды,
устойчивое развитие,
национальные интересы,
экологическое
управление,
институциональные
основы,
экологические
политические реформы,
экологические
политические институты,
международное
сотрудничество,
экологические стратегии.

В статье анализируется эволюция политических и правовых механизмов обеспечения экологической безопасности Узбекистана в 1992–2025 годах. Рассматривается процесс от Конституции до специальных законов, государственных программ и международных обязательств, освещаются три этапа – создание правовой основы, контроль и детализация, а также периоды стратегических концепций и международной интеграции.

So'nggi o'n yilliklar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ekologik muammolar endilikda davlatlarning siyosiy kun tartibidan mustahkam o'rin egallagan. Chunki ular inson hayot faoliyati, millatlarning kelajagi va davlatlarning barqaror rivojlanishiga bevosita tahdid tug'dirmoqda. Bunday jarayonlar oddiy iqtisodiy yoki texnik choralar bilan emas, balki chuqur siyosiy qarorlar va samarali institutsional mexanizmlar bilan hal etilishini taqozo qilmoqda. O'zbekiston tabiiy resurslarga boy mamlakatdir. Biroq bu boyliklardan samarali foydalanishning yagona yo'li – ularni qat'iy tartibga solish, muhofaza qilish va oqilona boshqarishdir. Zero, tabiiy resurslar ustidan mas'uliyatli siyosiy nazorat va institutsional boshqaruvsiz milliy ravnaq ham, barqaror taraqqiyot ham ta'minlanmaydi.

Shu bilan birga, ekologik xavfsizlikni ta'minlash jarayoni murakkabdir, chunki iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi hamda atmosfera va suv havzalarining ifloslanishi kabi global tahdidlar mavjud vaziyatni yanada chigallashtirmoqda. Mazkur sharoitda davlat siyosati faqat nazorat va ogohlantirish bilan cheklanmaydi, balki maxsus dasturlar, huquqiy institutlar, xalqaro hamkorlik mexanizmlari, shuningdek, turli siyosiy vositalar va usullar majmuasiga tayangan holda shakllanadi. Ana shu mexanizmlar va institutlarning uzluksiz hamda samarali faoliyati ekologik xavfsizlikni ta'minlash jarayonining tayanch omili sifatida namoyon bo'ladi.

Siyosiy mexanizmlar bu jarayonda hal qiluvchi o'rinni egallaydi. Zero, ular qonunchilikdan tortib iqtisodiy rag'batlantirishgacha, davlat dasturlaridan xalqaro majburiyatlargacha bo'lgan keng qamrovli strategiyalarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun ekologik xavfsizlik masalasi faqatgina tabiiy muhitni muhofaza qilishga doir texnik vazifa emas, balki siyosiy, iqtisodiy va institutsional barqarorlikning asosiy mezoniga aylanib bormoqda, chunki aynan shu mexanizmlarning samarali ishlashi orqali milliy manfaatlar himoyalanaadi, xalqaro majburiyatlar bajariladi va davlatning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyasi ta'minlanadi.

Bugungi kunda global siyosiy jarayonlarning murakkab fonida yuzaga kelayotgan ekologik inqirozlar siyosiy va ilmiy doiralarda, keng jamoatchilik orasida eng dolzarb muhokama mavzularidan biriga aylanganini inkor etib bo'lmaydi. Shunga qaramay, biz ijtimoiy hayotimizda ekologik vaziyat sezilarli darajada yaxshilandi degan xabarlarini hali ham kam eshitamiz. Demak, mavjud tahdidlarni chuqur anglash, ularning oqibatlarini ilmiy asosda tahlil etish va o'z vaqtida javob choralari ishlab chiqish har qanday millat va davlat uchun bugunning ham, ertangi taraqqiyotimizning ham nafaqat zarurati, balki tarixiy majburiyat darajasiga ko'tarilgan vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bizga ma'lumki, dunyoning yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlari tomonidan muntazam e'lon qilinayotgan yillik hisobotlar Yer sayyorasidagi ekologik vaziyatning naqadar og'ir va tahlikali tus olayotganini yaqqol tasdiqlab bermoqda. Xususan, AQShdagi Yel universiteti huzuridagi Atrof-muhit siyosati va huquq markazi tomonidan har ikki yilda bir marotaba taqdim etiladigan ilmiy asoslangan Atrof-muhit samaradorligi indeksi (ingliz tilida EPI-Environmental Performance Index) xalqaro maydonda ekologik xavfsizlikning o'ziga xos "barometri" sifatida e'tirof etilmoqda [1].

2022-yili e'lon qilingan ushbu indeks natijalariga ko'ra, O'zbekiston dunyoning 180 mamlakatlari ichida 38,20 ko'rsatkich bilan 107-o'rinni egalladi. Taqqoslash uchun, birinchi o'rinda Daniya bo'lib, ilk o'ntalik asosan G'arbiy Yevropa mamlakatlariga tegishlilikini ko'rishimiz mumkin. Bu mazkur mintaqalarda ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish siyosati eng yuqori darajada yo'lga qo'yilganidan dalolat beradi [2]. Ushbu ko'rsatkich O'zbekiston uchun, bir tomondan, mavjud imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish zaruriyatini eslatsa, ikkinchi tomondan, ekologik siyosat va boshqaruv mexanizmlarida hal etilishi lozim bo'lgan masalalar hanuz dolzarbligicha qolayotganini ko'rsatadi. Global darajada tuzilayotgan reytinglar nafaqat raqamlar yig'indisi, balki davlatning ekologik xavfsizlikni ta'minlash borasidagi siyosiy irodasi va institutsional salohiyatining bevosita ko'zgusi hisoblanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan taqdim etilgan Barqaror rivojlanish maqsadlari (keyingi o'rinlarda-BRM) bo'yicha so'nggi hisobot shuni ko'rsatadiki, "ketma-ket uch yil davomida global miqyosda BRM sari taraqqiyot sezilarli siljishsiz saqlanib qolmoqda [3]. Bu holat zamonaviy davrning achchiq haqiqatini namoyon etadi: insoniyat oldida turgan iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning yo'qolishi, tabiat resurslarining cheksiz talafotga uchrayotgani kabi global ekologik muammolar barqaror rivojlanishning tabiiy jarayonini izdan chiqarmoqda.

Shunday vaziyatda mamlakatlar o'z milliy manfaatlarini himoya qilish, jamiyat xavfsizligini kafolatlash va taraqqiyot yo'lidan chekinmaslik uchun keng qamrovli, kompleks yondashuvlarni ishlab chiqishga majbur bo'lmoqda. Endilikda ekologik xavfsizlikni ta'minlash – bu faqatgina mavjud ekologik muammolarni hal qilish, ularni barvaqt oldini olish, erta ogohlantirish vazifalari emas, balki davlat barqarorligi va millat istiqbolining asosiy siyosiy mezoniga aylanib bormoqda.

Atrof-muhit xavfsizligini boshqarish mohiyatan ekologik xavf va tahdidlarning oldini olish, ularni kamaytirish va oqibatlarini yumshatishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimidan iboratdir. Shu jihatdan “ekologik xavfsizlikni boshqarish” tushunchasi siyosiy, huquqiy va institutsional mexanizmlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Mazkur mexanizmlar tarkibiga, avvalo, atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan davlat dasturlari, milliy va mintaqaviy darajada qabul qilinayotgan qonunlar va normativ hujjatlar, ularni izchil amalga oshirishning samarali mexanizmlarini qamrab oladi. Zero, siyosiy mexanizmlar mavjud bo'lmagan taqdirda ekologik xavfsizlikni boshqarish nazariya, boshqacha aytganda shior bo'lib qoladi, xolos. Shu sababli bu masala davlatlarning eng muhim strategik vazifalaridan biri sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda.

O'zbekistonda ekologik xavfsizlikning institutsional asoslari o'z-o'zidan emas, balki siyosiy, iqtisodiy, tarixiy va madaniy omillarning o'zaro ta'siri natijasida bosqichma-bosqich shakllanib bordi. XX asrning 90-yillaridan boshlab mamlakatimiz hayotida ekologik muammolarni aniqlash, ularni bartaraf etish va nazorat qilish borasida mutlaqo yangi tartib va yondashuvlar joriy qilina boshladi. Bu jarayon, avvalo, O'zbekistonning mustaqil demokratik davlat sifatida shakllanishi, jahon miqyosida umume'tirof etilgan xalqaro ekologik huquq normalarini tan olishi hamda milliy ekologik qonunchilikni yaratishga doir sa'y-harakatlari bilan chambarchas bog'liq edi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, dunyo mamlakatlarining ekologik xavfsizlik amaliyotida davlatning bu sohadagi siyosati maxsus tashkil etilgan organlar tizimi orqali olib boriladi. Shu boisdan ekologik qonunchilik ijrosini ta'minlash, ularning bajarilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish va mavjud tahdidlarning oldini olish bevosita ushbu organlarning zimmasiga yuklanadi.

Demak, bundan kelib chiqadiki, ekologik xavfsizlikning institutsional qurilishi – bu nafaqat tashkiliy-huquqiy masala, balki milliy barqarorlik va xavfsizlikning ajralmas tarkibiy qismidir. Agar mazkur tizim o'z vaqtida shakllantirilmaganida, ekologik tahdidlarning kuchayishi jamiyatda siyosiy beqarorlik va ijtimoiy tanglik manbai sifatida yuzaga chiqishi muqarrar edi. Shu jihatdan ekologik xavfsizlikning institutsional asoslarini yaratish O'zbekistonning mustaqillik davrida amalga oshirilgan eng muhim strategik choralardan biri sifatida tarixiy ahamiyat kasb etdi.

O'zbekiston o'z mustaqillik yo'lga qadam qo'ygan ilk davrdanoq avvalgi tuzumdan og'ir ekologik “meros”ni qabul qilib oldi. Bu, avvalo, Orol dengizining qurib borishi bilan bog'liq ekologik inqiroz bo'lib, u nafaqat atrof-muhitning umumiy ahvoliga, balki aholining sog'lig'iga ham bevosita salbiy ta'sir ko'rsatayotgan edi. Suv va yer resurslarining keskin kamayishi, katta maydonlarning yaroqsiz holga kelishi mamlakatimizning taraqqiy etishiga jiddiy xavf tug'dirayotgan tahdidlar sifatida namoyon bo'ldi.

1980-yillar oxiriga kelib, O'zbekistondagi ekologik muammolar shunchalik kuchaydi-ki, mavjud vaziyatni oddiy chora-tadbirlar bilan hal qilib bo'lmasligi ayon bo'ldi. Aynan shunday sharoitda, 1988-yil aprel oyida Respublika hukumati tomonidan qabul qilingan qaror tarixiy ahamiyat kasb etdi. Mazkur qarorga ko'ra, mamlakatda atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan maxsus davlat organi – **O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi** (keyingi o'rinlarda – TMDQ) tashkil etildi [4]. TMDQ va uning hududiy bo'linmalari Qoraqalpog'iston Respublikasi, barcha viloyatlar va Toshkent shahrida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ifloslanishga qarshi kurashish hamda tabiatni muhofaza qilish faoliyatini muvofiqlashtirish vazifalarini o'z zimmasiga oldi.

Mazkur institutsional asos yaratilgach, navbatdagi bosqich sifatida atrof-muhitni har tomonlama himoya qiluvchi qonunchilikni ishlab chiqish va uni joriy etish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida shakllandi. Bu qadam, aslida, davlat tomonidan ekologik tahdidlarni anglash va ularga bevosita javob qaytarishning muhim namunasidir. Siyosiy fanlar doktori, professor Sh.Paxrutdinov ta'kidlaganidek, "tahdidni vaqtida sezish va unga qarshi choralar ko'rish millatning istiqboli va barqarorligini ta'minlovchi shartdir" [5]. Shu jihatdan qaraganda, 1988-yilda tashkil etilgan ekologik boshqaruv organlari O'zbekiston tarixida ekologik xavfsizlikni institutsional darajada shakllantirish yo'lidagi dastlabki izchil qadamlardan biri bo'ldi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Sh.Paxrutdinov o'z asarlarida tahdidni bartaraf etishning eng muhim omili sifatida davlatning siyosiy salohiyati va institutsional imkoniyatlarini ko'rsatadi. Aynan shu nuqtai nazardan qaralganda, O'zbekistonda ekologik boshqaruv organlarining shakllanishi – bu tahdidga berilgan o'z vaqtida javobning amaliy ifodasidir.

Har qanday suveren davlatning eng oliy ramzi – bu uning Konstitutsiyasidir. Zamonaviy davr tajribasi shuni ko'rsatadiki, Konstitutsiyalar endilikda faqat siyosiy va huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi hujjat bo'lib qolmay, balki ekologik boshqaruv va xavfsizlikni ham kafolatlovchi normativ asos darajasiga ko'tarilgan. Chunki tabiatni muhofaza qilmagan va resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlamagan davlatning siyosiy barqarorligi ham, iqtisodiy taraqqiyoti ham muqarrar ravishda xavf ostida qoladi. Shu bois Konstitutsiyaga kiritilgan ekologik normalar nafaqat huquqiy qoidalar to'plami, balki davlatning siyosiy barqarorligi va strategik rivojlanishini himoya qiluvchi konstitutsiyaviy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham fuqarolarning tabiatni asrash majburiyati, davlatning ekologik muhofazaga oid siyosati, yer, suv, yer osti boyliklari va boshqa tabiiy resurslarning xalq mulki ekanligi qat'iy belgilangan. Bu normalar tasodifiy emas – ular ekologik xavfsizlikni ta'minlashning muhim siyosiy mexanizmlaridan biridir. Ushbu normalar 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan birinchi Konstitutsiyada o'z aksini topdi. Shu jihatdan, bu yerda 1992-yilgi Konstitutsiyaning ayrim moddalarini keltirish o'rinlidir:

50-modda. Barcha fuqarolar atrof-muhitni muhofaza qilishga majburlarlar.

51-modda. Fuqarolar qonunda belgilangan soliqlar va mahalliy yig'implarni to'lashga mas'uldirlar.

54-modda. Har qanday mulk atrof-muhitga zarar yetkazmasligi shart.

55-modda. Yer, yer osti boyliklari, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar davlat tomonidan muhofaza qilinadi va milliy boylik sifatida barqaror foydalanishga yo'naltiriladi.

Mazkur moddalar mohiyatiga ko'ra, davlat va fuqarolar o'rtasida o'zaro mas'uliyat tizimini vujudga keltiradi: davlat tabiiy resurslarni milliy boylik sifatida muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni ta'minlash majburiyatini olgan bo'lsa, fuqarolar ekologik intizomni saqlash va tabiatga zarar yetkazmaslik burchini zimmasiga olgan.

Shu konstitutsiyaviy poydevorga tayangan holda, mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan qator qonunlar va me'yoriy hujjatlar qabul qilindi hamda xalqaro va mintaqaviy ekologik konvensiyalarga qo'shilish orqali milliy huquqiy tizim yanada mustahkamlandi. Bu jarayonda alohida ahamiyat kasb etgan asosiy milliy huquqiy hujjatlardan biri – 1992-yilda qabul qilingan "Tabiatni

muhofaza qilish to'g'risida"gi 754-XII-sonli Qonun bo'lib, u atrof-muhit sifatini saqlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik muvozanatni ta'minlashning huquqiy, iqtisodiy hamda tashkiliy asoslarini belgilab berdi [6].

Undan keyingi yillarda qabul qilingan maxsus qonunlar, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari orqali ekologiyaga oid qonunchilik tizimli ravishda mustahkamlanib bordi. Ushbu huquqiy hujjatlar ekologik boshqaruvning siyosiy va institutsional asoslarini belgilab, ekologik tahdidlarni kamaytirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashning muhim kafolatiga aylandi.

Mamlakatimizda ekologiya oid qabul qilingan asosiy qonunlar va qarorlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, huquqiy baza shakllanishi jarayoni oddiy ketma-ketlik bo'lib qolmay, balki davr talablariga mos holda bosqichma-bosqich takomillashib borgan murakkab tizimdir. Qonunlarning qabul qilinish sanalari, ularning mazmuni va maqsadlari tahlili orqali ekologik boshqaruvning umumiy yo'nalishlari, ustuvorliklari hamda siyosiy-institutsional qarashlardagi o'zgarishlarni kuzatish mumkin. Shu tariqa, yuqoridagi jadval asosida ekologik qonunchilik rivojlanishining asosiy tendensiyalarini ajratish imkoniyati yuzaga keladi.

1-bosqich. Nazariy poydevor va umumiy huquqiy asoslar yaratilishi bosqichi (1992–2000-yillar). 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining birinchi Konstitutsiyasi ekologik xavfsizlikni qonuniy darajada mustahkamladi. Asosiy Qonundagi 50, 51, 54 va 55-moddalar orqali fuqarolarning burchi, davlatning mas'uliyati hamda mulkning ekologik javobgarligi aniq belgilandi. Bu moddalar oddiy huquqiy norma emas, balki tabiatni muhofaza qilish jamiyat taraqqiyoti uchun umumxalq burchi ekanini tasdiqlovchi tamoyil bo'lib xizmat qildi.

Oradan ko'p o'tmay, 1992-yil 9-dekabrda "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. 1993–1996-yillarda esa "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida" va "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunlar ekologik boshqaruvning asosiy yo'nalishlarini tartibga soldi [7, 8, 9]. 2000-yilda "Ekologik ekspertiza to'g'risida" (*Izoh: Mazkur Qonun O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 24-fevraldagi O'RQ–1036-sonli "Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash to'g'risida"gi Qonuniga asosan 2025-yil 25-avgustdan o'z kuchini yo'qotadi*) va "Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida"gi qonunlar qabul qilinishi esa xavfsizlik va baholash mexanizmlarining joriy etilishidan dalolat berdi [10, 11].

Bu davrning mohiyati shundaki, asosiy ekologik tushunchalar shakllandi, umumiy talablar belgilandi, huquqiy poydevor yaratildi, boshqacha aytganda ekologik siyosat nazariy asosdan amaliy mexanizmlarga tomon yuz tutdi.

2-bosqich. Maxsus yo'nalishlarda detallashtirish va nazoratni kuchaytirish bosqichi (2000–2015-yillar)

Mazkur bosqichda qonunchilik sohaga yo'naltirilgan holda chuqurlashtirildi. 2002-yilda qabul qilingan "Chiqindilar to'g'risida"gi Qonun chiqindilarni boshqarish va ularning salbiy ta'sirini kamaytirish masalasini huquqiy tartibga soldi. 2004-yilda esa "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi Qonun bioxilma-xillikni huquqiy jihatdan himoya qilishni ta'minladi [12, 13].

2013–2015-yillarda qabul qilingan "Ekologik nazorat to'g'risida" va "Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida"gi qonunlar monitoring va sanitariya nazorati tizimlarini mustahkamlab berdi [14, 15]. Ikkinchi bosqichda huquqiy tizimni detallashtirish, nazorat mexanizmlarini kuchaytirish va sohalar bo'yicha ixtisoslashgan yondashuvni shakllantirish kabi jarayonlar kuzatildi.

3-bosqich. Strategik konsepsiyalar, xalqaro integratsiya va innovatsion yondashuv bosqichi (2019–2025 yillar)

2019-yilda qabul qilingan Prezident farmonlari – “2030-yilgacha atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi” hamda “2030-yilgacha bo‘lgan davrda yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” – ekologik qonunchilikni yangi bosqichga olib chiqdi [16, 17]. Endilikda masala nafaqat milliy miqyosda, balki global kontekstda ham ko‘rila boshlandi. Shu yili tasdiqlangan “Biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasi (2019–2028)” ekotizimlarni huquqiy muhofaza qilishni yanada kengaytirdi [18].

Shu bilan birga, 2020–2022-yillarda energiya, qayta tiklanuvchi manbalar va ko‘kalamzorlashtirishga oid qarorlar qabul qilindi. Bunda raqamlashtirish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining joriy etilishi esa huquqiy siyosatni zamonaviy texnologik rivojlanish bilan uyg‘unlashtirdi. 2024–2025-yillarda chiqindilarni boshqarish tizimini isloh qilish, “nol chiqindi” tamoyiliga o‘tish va ekologik reglamentlarni tasdiqlash qonunchilikni yangi sifat bosqichiga olib chiqdi.

Bu davrning mohiyati shundaki, qonunchilik endi strategik yo‘nalishlarni belgilaydigan, xalqaro standartlarga moslashadigan va innovatsiyalarni huquqiy qo‘llab-quvvatlaydigan tizim darajasiga ko‘tarildi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, shuni ta’kidlash mumkinki, ekologik qonunchilikning rivojlanishida uch asosiy tendensiya ko‘zga tashlanadi:

1. **1990-yillar** – nazariy poydevor va umumiy huquqiy asoslarning yaratilishi;
2. **2000–2015-yillar** – sohaga yo‘naltirilgan detallashtirish va nazorat mexanizmlarining kuchayishi;
3. **2019–2025-yillar** – strategik konsepsiyalar, xalqaro integratsiya va innovatsion yondashuvning huquqiy jihatdan mustahkamlanishi.

Mazkur tendensiyalar aslida bitta savolga javob izlashga olib keladi: “O‘zbekiston o‘z ekologik xavfsizligini qanday yo‘l bilan ta‘minladi?”. Javob shundaki, davlat ekologik xavfsizlikni nazariy tushunchalar darajasidan amaliy siyosat maydoniga olib chiqdi, sohalar bo‘yicha detallashtirilgan nazorat tizimini yaratdi va borgan sari uni strategik konsepsiyalar hamda xalqaro standartlarga asoslangan yaxlit mexanizmga aylantirdi.

1992–2025-yillar davomida O‘zbekiston ekologik xavfsizligini ta‘minlash borasida siyosiy va huquqiy mexanizmlar bosqichma-bosqich shakllanib, milliy taraqqiyotning ajralmas tarkibiy qismiga aylandi. Dastlab Konstitutsiyaviy normalar va umumiy qonuniy asoslar yaratilgan bo‘lsa, keyinchalik maxsus sohalarga oid qonunlar, nazorat mexanizmlari hamda xalqaro majburiyatlar tizimi shakllandi. 2019-yildan boshlab esa ekologik siyosat strategik konsepsiyalar, “yashil iqtisodiyot” tamoyillari va innovatsion yondashuvlar orqali yangi bosqichga ko‘tarildi.

Bugun Yangi O‘zbekiston ekologik xavfsizlikni faqat ekologik muammolarni hal qilish vazifasi emas, balki milliy manfaatlar, siyosiy barqarorlik va xalqaro hamkorlikning asosiy mezon sifatida ko‘rmoqda. Ekologik xavfsizlikni ta‘minlash yo‘lida siyosiy iroda, huquqiy mexanizmlar va institutsional salohiyat uyg‘unligi mamlakatning uzoq muddatli barqaror taraqqiyot strategiyasining kafolati hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Yale University. Atrof-muhit samaradorligi indeksi (Environmental Performance Index). 2024. Yale Environmental Performance Index. URL: <https://epi.yale.edu>. (murojaat qilingan sana: 18.02.2025).

2. Wolf M. J., Emerson, J. W., Esty, D. C., de Sherbinin, A., Wendling, Z. A., et al. (2022). 2022 Environmental Performance Index. New Haven, CT: Yale Center for Environmental Law & Policy. epi.yale.edu.
3. Sachs, J.D., Lafortune, G., Fuller, G., Drumm, E. (2023). Implementing the SDG Stimulus. Sustainable Development Report 2023. Paris: SDSN, Dublin: Dublin University Press, 2023. 10.25546/102924.
4. O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali. Vazirlik tarixi. 2025. Gov.uz. URL: https://gov.uz/oz/eco/pages/history_of_the_ministry (murojaat qilingan sana: 17.05.2025).
5. Paxrutdinov Sh. "Tahdid" tushunchasi: nazariya va amaliyot // Mas'ul muharrir. / – T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashr. 1998. 8-bet
6. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 9 dekabrda "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi O'RQ-754-XII-son qonuni. [Elektron manba] URL: <https://lex.uz/docs/-107115>. (Murojaat sanasi: 19.01.2024).
7. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 9 dekabrda "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi O'RQ-754-XII-son qonuni. [Elektron manba] URL: <https://lex.uz/docs/-107115>. (Murojaat sanasi: 17.08.2025)
8. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 6-mayda "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi O'RQ-837-XII-son qonuni. [Elektron manba] URL: <https://lex.uz/docs/-12328>. (Murojaat sanasi: 17.08.2025)
9. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 27 dekabrda "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun, 353-I-son. [Elektron manba] URL: <https://lex.uz/docs/-55561>. (Murojaat sanasi: 17.08.2025)
10. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 25 mayda "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi Qonun, 73-II-son. [Elektron manba] URL: <https://lex.uz/docs/-32955>. (Murojaat sanasi: 17.08.2025)
11. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 31 avgustda "Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida"gi Qonun, 120-II-son. [Elektron manba] URL: <https://lex.uz/docs/-26166>. (Murojaat sanasi: 17.08.2025)
12. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. O'zbekiston Respublikasining 2002 yil 5 aprelida "Chiqindilar to'g'risida"gi Qonuni, 362-II-son. [Elektron manba] URL: <https://lex.uz/ru/docs/-42423>. (Murojaat sanasi: 17.08.2025)
13. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. O'zbekiston Respublikasining 2004 yil 3 dekabrda "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi Qonun, 710-II-son. [Elektron manba] URL: <https://lex.uz/docs/-415135>. (Murojaat sanasi: 17.08.2025)
14. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. O'zbekiston Respublikasining 2013 yil 27 dekabrda "Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ-363-son. [Elektron manba] URL: <https://lex.uz/docs/-2304953>. (Murojaat sanasi: 17.08.2025)

15. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. O'zbekiston Respublikasining 2015 yil 26 avgustdagi "Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ-393-son. [Elektron manba] URL: <https://lex.uz/docs/-2732587>. (Murojaat sanasi: 17.08.2025)

16. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 oktyabrdagi PF-5863-sonli Farmoni: 2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. [Elektron manba] URL: <https://lex.uz/docs/-4574008>. (Murojaat sanasi: 17.08.2025)

17. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 oktyabrdagi PF-5863-sonli Farmoni: 2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. [Elektron manba] URL: <https://lex.uz/docs/-4574008>. (Murojaat sanasi: 17.08.2025)

18. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 11 iyundagi 484-son qarori "2019–2028-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to'g'risida". [Elektron manba] URL: <https://lex.uz/docs/-4372839>. (Murojaat sanasi: 17.08.2025).